MODERN FEATURES OF WOMEN'S CRIME AND ITS IMPACT ON SOCIETAL DEVELOPMENT

Abduraimova Guzal Abdunabiyevna

Senior Legal Advisor, Legal Support Group, Organizational Department, Penal Colony No. 21 under the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Abstract

This article analyzes the modern characteristics of women's crime, its causes, dynamics and impact on the development of society from a criminological perspective. The author examines the differences between crimes committed by women and men's crime, the influence of socio-economic factors, and statistical indicators of women's crime in Uzbekistan in recent years. The study also pays special attention to the problem of preventing recidivism among women released from prisons, and the research work conducted in this area is included in the analysis. At the end of the article, conclusions and proposals are made on the current state policy on preventing women's crime, the system of socialization of women released from prisons, and directions for improving preventive measures.

Keywords: women's crime, criminology, determinants of crime, gender factors, prevention, penal institution, social rehabilitation, administrative control, recidivism.

AYOLLAR JINOYATCHILIGINING ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA’SIRI

Abduraimova Guzal Abdunabiyevna

O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi JIED 21-son Jazoni ijro etish koloniyasi, Tashkiliy bo‘lim, Yuridik ta’minlash guruhi katta yuriskonsulti

E-mail: guzalpro@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada ayollar jinoyatchiligining zamonaviy xususiyatlari,

uning kelib chiqish sabablari, dinamikasi va jamiyat taraqqiyotiga ta’siri masalalari kriminologik jihatdan tahlil qilingan. Muallif ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning erkaklar jinoyatchiligidan farqli tomonlarini, ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta’sirini hamda O‘zbekistonda ayollar jinoyatchiligining so‘nggi yillardagi statistik ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqadi. Tadqiqotda, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollar o‘rtasida retsidiv jinoyatchilikning oldini olish muammosiga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu borada olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlilga jalb etilgan. Maqola yakunida ayollar jinoyatchiligining oldini olish bo‘yicha amaldagi davlat siyosati, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollarni ijtimoiylashtirish tizimi va profilaktika choralarini takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: ayollar jinoyatchiligi, kriminologiya, jinoyatchilikning determinantlari, gender omillari, profilaktika, jazoni ijro etish muassasasi, ijtimoiy reabilitatsiya, ma’muriy nazorat, retsidiv jinoyatchilik.

СОВРЕМЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЖЕНСКОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ОБЩЕСТВА

Абдураимова Гузаль Абдунабиевна

Старший юрисконсульт, Группы правового обеспечения, Организационного отдела Колонии исполнения наказаний № 21 Департамента исполнения наказаний при Министерстве внутренних дел Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье анализируются современные характеристики женской преступности, ее причины, динамика и влияние на развитие общества с криминологической точки зрения. Автор рассматривает различия между преступлениями, совершаемыми женщинами и мужчинами, влияние социально-экономических факторов и статистические показатели женской преступности в

Узбекистане за последние годы. В исследовании также уделяется особое внимание проблеме предотвращения рецидивов среди женщин, освобожденных из тюрем, и в анализ включена исследовательская работа, проведенная в этой области. В заключение статьи приводятся выводы и предложения по текущей государственной политике в области предотвращения женской преступности, системе социализации женщин, освобожденных из тюрем, и направлениям совершенствования профилактических мер.

Ключевые слова: женская преступность, криминология, детерминанты преступности, гендерные факторы, профилактика, пенитенциарное учреждение, социальная реабилитация, административный контроль, рецидив.

KIRISH

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, ayollarning mehnat bozoridagi faolligining ortishi va oilaviy munosabatlar tizimidagi transformatsiyalar jinoyatchilikning gender tarkibiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ayollar jinoyatchiligi umumiy jinoyatchilikning ajralmas qismi bo‘lib, u o‘ziga xos sifat va miqdoriy xususiyatlarga ega bo‘lgan mustaqil kriminologik hodisa sifatida o‘rganilishi lozim. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning tarkibi, motivatsiyasi va ijtimoiy oqibatlari erkaklar jinoyatchiligidan sezilarli darajada farq qiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, ayol - oila va jamiyatning tayanch bo‘g‘ini, farzand tarbiyachisi va ma’naviy qadriyatlarning davomchisi hisoblanadi. Shu bois ayollar tomonidan jinoyat sodir etilishi nafaqat huquqiy, balki chuqur ijtimoiy-axloqiy muammo bo‘lib, u kelajak avlod tarbiyasiga, oila mustahkamligiga va umuman jamiyat taraqqiyotining barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollarning jamiyatga qayta moslashuvi va ularning

takroriy jinoyat sodir etishining oldini olish masalasi ham mustaqil ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki bu jarayonning samarasiz tashkil etilishi retsidiv jinoyatchilikning o‘sishiga olib kelishi mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi - Q.R.Abdurasulova, A.Shodiyev, shuningdek jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollar retsidivining oldini olish muammosini maxsus tadqiq etgan A.Sh.Murodov kabi olimlarning ilmiy ishlari hamda rasmiy statistik ma’lumotlar asosida ayollar jinoyatchiligining zamonaviy xususiyatlarini tahlil qilish, uning sabablarini aniqlash va jamiyat taraqqiyotiga ko‘rsatayotgan ta’sirini baholashdan iborat [1; 3; 4].

AYOLLAR JINOYATCHILIGINING TUSHUNCHASI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kriminologik adabiyotlarda ayollar jinoyatchiligi deganda, ma’lum vaqt va makonda ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar majmui tushuniladi. Q.R.Abdurasulovaning fikricha, ayollar jinoyati umumiy jinoyatchilikning ajralmas qismi sifatida tarixan o‘zgaruvchan hodisa bo‘lib, u faqat o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu ayolning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei va uning ijtimoiy-huquqiy maqomi bilan uzviy bog‘liqdir [1].

Ayollar jinoyati tarkibi erkaklar jinoyatchiligidan, asosan, kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan yollanma (mansabdan foydalanib sodir etiladigan) jinoyatlarning ko‘pligi bilan farqlanadi: o‘zlashtirish yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘g‘irlik, firibgarlik, mansab vakolatlaridan chetga chiqish kabi jinoyatlar shular jumlasidandir. Ayollarning ushbu jinoyatlarni sodir etishdagi yuqori “jinoyat faolligi” ko‘pincha bu harakatlarning iqtisodiyotning feminizatsiyalashgan sohalarida - savdo, banklar, maishiy xizmat ko‘rsatish va pul-mablag‘ muomalasi bilan bog‘liq sohalarda sodir bo‘lishi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, ayollar jinoyatchiligining aksariyati erkaklar jinoyati singari qasddan sodir etiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ayollar jinoyatining sezilarli qismi ilgari rejalashtirilgan bo‘ladi, bu esa jinoyatning tayyorgarlik bosqichida ayolning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, xususan, hissiy holati, oilaviy vaziyati va atrof-muhit bilan munosabatlarining muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, huquqbuzarliklar profilaktikasining umumiy nazariy asoslarini o‘rgangan tadqiqotchilar ham jinoyat sodir etuvchi shaxsning ijtimoiy muhiti va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etishni profilaktikaning boshlang‘ich va hal qiluvchi bosqichi sifatida belgilaydilar [5].

ZAMONAVIY O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR JINOYATCHILIGINING HOLATI VA DINAMIKASI

Ichki ishlar vazirligi tomonidan e’lon qilingan rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda mamlakatimizda ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar sonida nisbatan ijobiy tendensiya kuzatilmoqda. Xususan, 2026 yilning yanvar-iyun oylarida ayollar 663 ta jinoyatga qo‘l urgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich bir yil oldingiga nisbatan 251 taga qisqargan. Bu, birinchi navbatda, davlat tomonidan ayollarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini kuchaytirish, ularning bandligini ta’minlash va ijtimoiy reabilitatsiya tizimini takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar samarasi sifatida baholanishi mumkin.

Shunga qaramay, mintaqaviy kesimda ayrim hududlarda, jumladan Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida voyaga yetmaganlar hamda ayollar jinoyatchiligining ortib borish holatlari qayd etilgan, bu esa profilaktika ishlarini hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etish zaruratini ko‘rsatadi. Umumiy statistik ko‘rsatkichlarning ijobiy dinamikasiga qaramay, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollar orasidagi retsidiv jinoyatchilik alohida muammo bo‘lib qolmoqda. A.Sh.Murodovning

maxsus tadqiqotida ta’kidlanishicha, bunday shaxslarning jamiyatga qayta moslashuv jarayonidagi ijtimoiy-huquqiy va psixologik qiyinchiliklar, agar ular bilan tizimli ishlanmasa, takroriy huquqbuzarlikka olib kelish xavfini oshiradi, shu sababli bu toifadagi ayollar bilan ishlash alohida hisobga olinishi va monitoring qilinishi lozim bo‘lgan mustaqil yo‘nalish sifatida qaralishi kerak [4].

AYOLLAR JINOYATCHILIGINING SABABLARI VA KELIB CHIQISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Ayollar jinoyatchiligini yuzaga keltiruvchi jiddiy qarama-qarshiliklardan biri bu - ayollarning mehnat, kasbiy faoliyatda faol ishtirok etishga bo‘lgan ehtiyoji bilan moddiy muammolarning ularning zimmasiga tushishi, shuningdek mehnat bozorida gender stereotiplari mavjudligi va nomutanosiblikdir. Doimiy ish joyining yo‘qligi, oylik maoshining pastligi, turli madaniy hordiq chiqarishga moddiy ahvolning yo‘l qo‘ymasligi kabi omillar ayolni jinoyat yo‘liga kirishga undovchi asosiy sabablar sirasiga kiradi.

Jinoyat sodir etuvchi ayollarning psixologik xususiyatlariga alohida e’tibor berish lozim, chunki ularning atrof-muhit bilan bog‘liq ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayot tarzi hamda oilaviy turmush sharoiti jinoyat sodir etishda katta rol o‘ynaydi. Ko‘pincha oiladagi nizolar, er-xotin munosabatlaridagi keskinlik, moddiy qaramlik va ijtimoiy izolyatsiya holatlari ayolning jinoiy xatti-harakatga moyilligini oshiradi. Bundan tashqari, ishsizlik ham jinoyatchilikning muhim determinanti sifatida qayd etiladi - statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ishsiz fuqarolar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni yildan-yilga o‘zgarib borayotgani kuzatiladi, bu esa bandlik siyosatining jinoyat profilaktikasidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham ichki ishlar organlarining ushbu sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda boshqa davlat va nodavlat tuzilmalar bilan

hamkorlikda bartaraf etish bo‘yicha faoliyati profilaktikaning markaziy bo‘g‘ini sifatida ko‘rsatiladi [5].

AYOLLAR JINOYATCHILIGINING JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA’SIRI

Ayol jamiyatning eng nozik va muhim ijtimoiy bo‘g‘ini - oila institutining markazida turadi. Shu sababli ayollar tomonidan jinoyat sodir etilishi bir necha yo‘nalishda jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, jinoyat sodir etgan ayol farzandlarining tarbiyasidan mahrum bo‘lib, bu bolalar taqdirida chuqur iz qoldiradi va ayrim hollarda voyaga yetmaganlar orasida deviant xulq-atvorning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Ikkinchidan, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi izdan chiqadi, bu esa navbatdagi avlodning ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, ayollar jinoyatchiligining o‘sishi jamiyatning ma’naviy-axloqiy salohiyatiga putur yetkazadi, chunki xalqning ma’naviy darajasini, avvalambor, shu yurt ayollarining ma’naviy saviyasi belgilaydi. Shu bois ayollar jinoyatchiligining oldini olish nafaqat huquq-tartibot organlarining, balki butun jamiyatning, mahalla institutlari, ta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyati tuzilmalarining birgalikdagi vazifasi hisoblanadi.

PROFILAKTIKA VA OLDINI OLISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Ayollar jinoyatchiligining oldini olishda ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va psixologik-pedagogik choralarning uyg‘unlashtirilgan tizimi samarali natija beradi. Bunga quyidagilar kiradi: ayollarning bandligini ta’minlash va tadbirkorlikka jalb qilish dasturlarini kengaytirish; oilaviy nizolarni bartaraf etishga qaratilgan psixologik konsultatsiya xizmatlarini rivojlantirish; jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ularga kasb-hunar o‘rgatish tizimini

takomillashtirish; shuningdek, mahalla faollari va xotin-qizlar qo‘mitalari faoliyatini profilaktika ishlariga yanada faol jalb etish.

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollar retsidivining oldini olish muammosini maxsus o‘rgangan A.Sh.Murodovning tadqiqotiga asoslanib, ushbu yo‘nalishda quyidagi takliflarni alohida ta’kidlash lozim: birinchidan, jazoni o‘tash davridayoq ayol mahkumlarni ozod etilgandan keyingi hayotga tayyorlovchi individual reabilitatsiya dasturlarini joriy etish, ularga kasb-hunar o‘rgatish va bandlik markazlari bilan oldindan aloqa o‘rnatishni ta’minlash; ikkinchidan, «Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilinган airim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorat to‘g‘risida»gi qonun asosida o‘rnatiladigan ma’muriy nazorat mexanizmini ayollar toifasi uchun ularning oilaviy va ijtimoiy holatini hisobga olgan holda differensiallashtirish; uchinchidan, ichki ishlar organlari, mahalla institutlari, bandlik markazlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasida ozod etilgan ayollarni kuzatib borish bo‘yicha yagona axborot almashinuv tizimini yo‘lga qo‘yish; to‘rtinchidan, Prezidentning ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni mehnat bilan bandligini ta’minlashga qaratilgan farmoni va tegishli hukumat qarorlari ijrosini ayollar toifasi bo‘yicha alohida monitoring qilib borish [4; 9; 10].

Shuningdek, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan xotin-qizlarga ko‘rsatiladigan yordam turlari - ijtimoiy reabilitatsiya, ya’ni jamiyatda mustaqil ijtimoiy faoliyat ko‘rsatishi uchun qobiliyat va ko‘nikmalarini tiklash hamda rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish - profilaktika tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirilishi lozim. Yuqorida keltirilgan chora-tadbirlarning kompleks tarzda amalga oshirilishi nafaqat umumiy ayollar jinoyatchiligi ko‘rsatkichlarini pasaytirishga, balki retsidiv jinoyatchilikning o‘ziga xos, ancha barqaror ko‘rinishini ham sezilarli darajada qisqartirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ayollar jinoyatchiligi murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa bo‘lib, uning kelib chiqish sabablari ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va gender omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ayollar jinoyatchiligini kamaytirish yo‘nalishida ijobiy natijalarga erishilgan bo‘lsa-da, ayrim hududlarda saqlanib qolayotgan salbiy tendensiyalar, shuningdek jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollar orasidagi retsidiv jinoyatchilik muammosi profilaktika tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Ayollar jinoyatchiligining oldini olish - nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, balki davlat va jamiyatning barcha institutlarining birgalikdagi, kompleks harakatlarini talab qiluvchi strategik vazifadir. A.Sh.Murodov tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, retsidiv jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha maxsus, ya’ni ozod etilgan ayollar toifasiga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish umumiy profilaktika tizimining samaradorligini oshirishning muhim zaxirasi hisoblanadi. Bu borada ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish, xorijiy tajribani o‘rganish va milliy mentalitetga mos profilaktika modellarini ishlab chiqish kelgusi izlanishlarning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolari: Monografiya. T., 2005. 148 b.

2. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya: Darslik / Mas’ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. T.: TDYuI nashriyoti, 2008. 305 b.

3. Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va profilaktikasi // Jamiyat va innovatsiyalar (Society and innovations) ilmiy jurnali.

4. Murodov A.Sh. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollar residiv

jinoyatlarining profilaktikasini takomillashtirish: yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati (12.00.08). Toshkent davlat yuridik universiteti, 2023.

5. Tursunov A.S., Murodov A.Sh. Huquqbuzarliklar profilaktikasining umumiy tushunchasi va huquqiy asoslari // Jamiyat va innovatsiyalar – Общество i innovatsii – Society and innovations ilmiy jurnali.

6. Shodiev Abdukarim. Diniy ekstremizm va terrorizmga oid ashyolarni noqonuniy muomalaga kiritganlik uchun javobgarlikni takomillashtirish: PhD dissertatsiyasi avtoreferati (12.00.08). – T.: O‘zR IIV Akademiyasi, 2023.

7. O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi. Ayollar ensiklopediyasi: ilmiy-ommabop to‘plam. Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2024. 260 b.

8. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 apreldagi O‘RQ-532-son “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorat to‘g‘risida”gi Qonuni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 yanvardagi “Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni mehnat bilan bandligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

10. Алауханов Е.О. Криминология: Дарслик. Алматы: Юридический центр Пресс, 2008.

11. Ломброзо Ч., Ферреро Г. Женщина преступница и проститутка. СПб., 1902.

12. O‘zbekistonda yoshlar jinoyatlari keskin kamaydi, voyaga yetmaganlarniki esa ortdi // Gazeta.uz, 2026 yil 15 iyul.

13. Антонян Ю.М. Женская преступность: причины и предупреждение. М.: ВНИИ МВД СССР, 1992.